

O‘ZBEK TILIDA BAXT VA BAXTSIZLIK SEMALARINING SEMANTIK TAHLILI

Ibodot Abdurahmonova

Termiz davlat universiteti magistranti

Annotatsiya:

Frazeologik iboralarining turli xil xususiyatlarining tashqi shakliga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko‘proq frazeologik iboralarining tarkibidagi so‘zlar soniga qarab e‘ibor beriladi. Tasnif natijasiga, iboralar tabiatiga ko‘ra nechta so‘zdan tashkil topganini aniqlash mumkin. Mazkur maqolada o‘zbek tilida baxt va baxtsizlik semalarining semantik tahlili qator olimlarning fikrlari bilan boyitilgan holda berilmoqda.

Kalit so‘zlar: konsept, lingvomadaniyat, semantika, baxt, dunyoqarash.

Til lingvomadaniyatiga xos konseptlarni o‘rganish tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan tadqiqot sohalaridan biridir. Konseptlar lingvistik, falsafiy, madaniy va boshqa ko‘plab jihatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari konseptlarning ko‘plab tasniflari, sharhlari, izohlari va tadqiqot usullari mavjud[1].

Zamonaviy tilshunoslikda konseptlarni kompleks o‘rganish, ya’ni ham nazariy, ham amaliy jihatlarini tadqiqini qamrab olish xolatlari uchramaydi. Shu tariqa, muayyan konseptning leksik ifodalash yo‘llarini aniqlash oson ish emas.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz tillarining lingvomadaniyatida baxt konsepti bilan bog‘liq stereotiplarni aniqlash, lingvistik makonini o‘rganish, shuningdek, ayrim adabiy manbalarni tahlil qilishdan iborat[2].

Konseptni o‘rganishga o‘tishdan oldin til va madaniyat o‘rtasidagi yaqin munosabatni ta’kidlash kerakki, u aslida lisoniy madaniyatni tashkil etadi va insonning dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi. Tabiatdagi har qanday hodisani yoki biror asarni faqat so‘zlar yordamida tasvirlash va idrok etish mumkin[3]. Biroq, madaniyat ham, o‘z navbatida, rivojlanishi barobarida tilga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu asnoda atoqli nemis filologi Vilgelm fon Humboldtning til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarga doir dalillarini keltirish o‘rinlidir[4]. U o‘z asarlarida har bir madaniyatning milliyligini, uning milliy xarakteri esa tilda dunyoqarash orqali ifodalanishini, til esa har bir alohida millatga xos ichki shaklga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olimning tilning ichki shakli “milliy ruh”ning ifodasidir, -degan g‘oyasi ham muhimdir[21].

Xumboldt til inson va uning atrofidagi dunyo o‘rtasidagi uzviy bog‘lovchi deb hisoblagan. Ammo, insonlar bir tilda so‘zlashsalar ham, o‘z dunyoqarashi va madaniyati ta’siri tufayli birbirlarini tushunmasliklari mumkin[5].

Madaniyat tilning tuzilishi va funksional ishlatilishiga ta’sir ko‘rsatadi, tilning o‘zini esa madaniyatning bir ko‘rinishi deb qarash mumkin. Til madaniy qadriyatlarimiz va dunyoqarashlarimizga ta’sir ko‘rsatadi va mustaxkamlaydi. Madaniyat va til o‘rtasidagi

munosabatning bu davriylik xarakteri shuni anglatadiki, hech bir madaniyatni uning tilini tushunmasdan turib to'liq anglab bo'lmaydi va aksincha[6].

Inson tafakkuri noverbal bo'lib, u universal predmetlashgan kod yordamida amalga oshiriladi. Odamlar konseptlar yordamida, ya'ni kodlashtirilgan birliklar asosida fikrlaydilar.

Til - tafakkur birliklari sifatida tushunchalarning inson ongiga, uning konseptual sohasiga, mazmuni va tuzilishiga kirish vositalaridan biridir. Til orqali ongning konseptual mazmunini idrok etish va ochib berish mumkin[7]. Konseptlar - til ifodalariga nisbatan konseptual tizimning birliklari bo'lib, ular dunyo haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar dunyoning haqiqiy yoki virtual holatini anglatadi. Konsept - bu dunyoning bir qismini ifodalaydi. Har qanday tushuncha [obraz, g'oya, ramz] umummilliy xususiyatlar bilan shakllangan bo'lib, ular individual tajriba va shaxsiy tasavvur xususiyatlari bilan to'ldiriladi[8].

Konsept - bu individual tushuncha, tasavvur belgilari bilan murakkablashgan milliy obraz [g'oya, ramz]dir. Til birliklarining materiali asosida tushunchalarni funksional aspektida va ularning xususiyatlari vositasida taqdim etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Konsept belgisi – bu umumiy asos bo'lib, unga ko'ra ba'zi bir-biriga o'xshamagan voqea-xodisalar taqqoslanadi[9].

Konseptlarni voqelantiruvchi til birliklari semantikasini o'rganish, konseptlar mazmunini fikr birliklari sifatida tadqiq qilish imkonini beradi. Til birliklari ma'nolarining to'plami tilning semantik makonini tashkil etadi. Konsept – tafakkur birligi, ma'no - tilning semantik makon birligidir. Ma'no konseptning tafakkur birligi sifatida til belgisi bilan belgilangan muloqot vositasi sifatidir[10].

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida lingvokonseptologiyani bir qancha yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular lingvistik konseptologiya muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib boradilar va ma'lum tudagi konseptlarning tizimli tavsifini amalga oshiradilar[22]. Konseptlarni tushinishdagi ayrim farqlarga, ularni tadqiq etish usullari va metodlaridagi farqlarga qaramay, bu maktablar vakillari konseptning ongning asosiy birligi ekanligini e'tirof etishda o'xshash nuqtai nazarni bildirib, konsept lisoniy vositalar orqali moddiylashadi (moddiy tusga kiradi) deb qarashadi; konseptni ob'ektivlashtiradigan lingvistik vositalar to'plamini tahlil qilish orqali konseptning mazmuni va tuzilishi haqida tushuncha hosil qilish va bu konseptni ta'riflash mumkin[11].

Har qanday holatda bunday tavsif to'liq bo'lmas-da, chunki u faqat lingvistik ma'lumotlarga asoslangan, konseptlar esa idrok birliklari sifatida mazmunning noverbal qismini ham tashkil qiladi; shu bilan bir qatorda, lisoniy ma'lumotlar orqali konseptni taxlil qilish uni tasvirlash uchun juda boy va eng ishonchli ma'lumotni taqdim etadi.

Lingvistik to'plamlardagi ilmiy maqolalarning nashrlar soniga qaraganda, konseptlarni modellashtirish zamonaviy filologiyani eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylandi. S.A. Askold-Alekseev badiiy konseptlarni quyidagicha ajratib ko'rsatadi – “idrok

konseptlari - umumiydir, madaniy konseptlar – individualdir”. Madaniyatshunoslikdagi konseptni insonning ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy hujayrasi sifatida belgilash mumkin[12]. Konseptlar shaxs ongida faqat soʻzlarning lugʻaviy maʼnolari asosida emas, balki milliy madaniy-tarixiy va shaxsiy tajriba asosida ham paydo boʻladi. Ushbu tajriba qanchalik boy boʻlsa, konseptlarning chegaralari shunchalik keng va oʻz navbatida soʻzning hissiy aurasini shakllantirish imkoniyatlari shunchalik keng boʻlib ularda konseptning barcha qirralari yaqqol namoyon boʻladi[13].

Maʼlumki, baxt inson hayotining asosiy tushunchalaridan biridir. Insonning millati, irqi yoki eʼtiqodidan qatʼi nazar, bu tushuncha borliqning muayyan toʻliqligini, shaxsning pirovard maqsadini anglatadi. Albatta, har bir inson uni oʻzicha talqin qiladi va turli qadriyatlar bilan bogʻlaydi. Baxt muammosi qadim zamonlardan beri odamlar fikrini allab kelgan. Baxtga intilish haqidagi har xil tushunchalar Avgustin, Arastu, Seneka, Foma Akvinskiylar tomonidan koʻrib chiqilgan. Zamonaviy konsetologiyada baxt konseptining taxlilini Feyerbax, Mill, Gelvesiy, Bentam va boshqa olimlarning asarlarida uchratish mumkin. Polyak faylasufi V. Tatarevich - Inson baxti va saodati nomli salmoqli asar yozgan. Shuni taʼkidlash kerakki, etika bilan shugʻullangan deyarli barcha olim va mutafakkirlar baxt-saodat haqida oʻz fikrlarini bildirganlar[14].

Turli davrlardagi buyuk va dono kishilarning baxtga va uning turli koʻrinishlariga bildirgan bu kabi favqulodda qiziqishlari baxtning gʻoyasi madaniyatning kelib chiqishida yotadi, u individual va milliy ongning bir qismi sifatida talqin qilinishiga sababchidir[23]. Baxtga boʻlgan munosabat oʻz navbatida, shaxs maʼnaviy mohiyatining asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Bu konsept etno-madaniy oʻziga xosligi tufayli maʼlum madaniyatlar kontekstlarida turlicha talqin etiladi. Ilmiy tadqiqotimizda ilmiy qiziqish “baxt” tushunchasining ikki oʻziga xos madaniyatida - oʻzbek va ingliz tilida, oʻzbek madaniyatining ingliz tiliga tarjimasida namoyon boʻlishiga qaratilgan[16].

Shuning uchun bu konseptning etimologiyasi va semantikasini aloqasiz tillardagi, yaʼni ingliz va oʻzbek tillarining materialini qiyoslash orqali tadqiq qilish qiziqarli boʻlar edi, deb oʻylaymiz.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida baxt soʻzi uchun quyidagi xarakteristika berilgan. Bu tushuncha fors tilidan olingan boʻlib, dastlab ulush, taqdir, qismat, peshana maʼnosini anglatgan[17].

Shu bilan birga, bu soʻz vaqtlar oʻtishi bilan faoliyati, muvaffaqiyatlari, turmush tarzi, istaklarning bajarilishi, maqsadlarga erishish kabi maʼnolarni ham bildirib, yaʼni axloqiy, axloqiy qadriyatlarga yaqinroq boʻlgan tushunchalarni ham angлата boshladi.

Oʻz xayotidan toʻla qoniqish hosil qilish: Ona-yer nafasiga, mehriga, inʼomlariga toʻyib yashashdan ortiq baxt bormi? – Saodat[18].

Shu bilan bir qatorda, mazkur leksema omad, tole, iqbol kabi semantik sinonimlarga ham ega: Nega boshingga qoʻngan baxt qushni kaltak olib quvlaysan.

Baxt konseptining quyidagi sinonimlarini ham misol tariqasida keltirib o'tamiz: saodat, omad, shodlik, xursandchilik, iqbol, mamnunlik, baxtiyorlik, tole, murod, niyat, qobil[19].

Azim Xojiyevning o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida baxt konsepti va uning sinonimlari quyidagi leksemalar orqali taqdim etiladi: baxt, tole, saodat, iqbol va hayotdan qoniqish hissini yoki insonga shunday tuyg'u baxsh yetuvchi narsalarni ifodalaydi. Iqbol sinonimi asosan yuqori uslubga xos so'zdir[24]. Aksar xollarda tole, iqbol, baxt sinonimlariga mazmunan omad varianti to'g'ri keladi. Saodat sinonimi adabiy tilga xos variantdir va tilda kam uchraydi. Yuqorida keltirilgan sinonimlardan tashqari baxtli, baxtiyor, saodatli, toleli, mas'ud kabi sinonimlar ham mavjud. Masalan: Baxtiyor bo'lgan, baxti kulgan. Saodatli kitob. Baxtli ko'zim, men o'ylab boqsam, Ikki bahor ko'ribdi yoshing. Mas'ud sinonimi bugungi kunga kelib eskirgan, arxaik xisoblanib faqatgina yuqori uslubda ishlatiladi[20].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, baxt ikki tilda ham insonga xos bo'lgan xis-tuyg'uning bir turi bo'lib inson xayotini, borlig'ini baxolovchi asosdir. Baxt konseptining lingvomadaniy g'oyasi insonning milliy o'zligini belgilaydigan etnotsentrik semantik tuzilmadir.

Baxt g'oyasi tarixan tadrijiy va o'zgaruvchan bo'lib, bu turli davrlarga mansub turli tipdagi matnlarda ham tasdiqlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurazakov, F. A., & Meliev, S. K. (2022). Interactive Methods Used In The Formation Of Creative Activity (On The Example Of Primary School Students). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 257-262.
2. Abdurazakov, F. A., & ugli Odinaboboev, F. B. (2022). PEDAGOGICAL IMPORTANCE OF USING MODULE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 173-180.
3. Abdunabievich, F. A., Ugli, F. O. B., & Norbutaevna, N. D. (2022). TYPES OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES THAT CORRESPOND TO THE SPECIFICS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION AND TEACHING OF STUDENTS.
4. Абдуразақов, Ф. (2022, October). ЎҚУВЧИЛАРГА АХЛОҚИЙ-ЭСТЕТИК ТАРБИЯ БЕРИШДА НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *E Conference Zone* (pp. 110-115).
5. Абдуразақов, Ф. (2022). ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИДА УҚУВЧИЛАРНИНГ НОТИҚЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Conferencea*, 78-84.
6. Baxriddin o'g'li, F. O., Abdunabiyevich, F. A., & Norbo'Tayevna, N. D. (2022). IMPROVING VOCATIONAL EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BY

- DEVELOPING PRIMARY MECHANISMS OF NATIONAL CRAFTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 577-580.
7. Чарыев, И., & Абдураззоков, Ф. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. Энигма, (32), 86-93.
8. Samadova, V. (2022). SIMILE IS ONE OF THE OLDEST FORM OF A SPEECH. Science and innovation in the education system, 1(4), 82-83.
9. Samadova, V. (2022). SIMILE IS A TYPE OF METAPHOR. Science and innovation in the education system, 1(4), 84-86.
10. Samadova, V. (2022). SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN METAPHOR AND SIMILES IN ENGLISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(4), 258-260.
11. Ashurkulovna AZ. ADVERTING TEXTS AND THEIR PHONETIC FEATURES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022 May 26;3(5):1248-55.
12. Ashurkulovna, A. Z. (2022). ADVERTISING TEXTS AND THE LANGUAGE OF ADVERTISING TEXTS.
13. Sattorova, M. D. (2018). PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF TOLERANCE. Форум молодых ученых, (6-1), 43-44.
14. Sattorova, M. (2022). DIAGNOSTICS OF SOCIAL TOLERANCE OF STUDENTS. Science and innovation, 1(B5), 526-528.
15. Sattorova, M. (2020). Social tolerance is period demand. Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19), 1(03), 150-152.
16. Qizi, S. M. D. (2022). Socio-Psychological Views of Eastern Thinkers on Social Tolerance. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(3), 219-220.
17. Erkinovna, N. D. (2021). Anxiety-as an emotional state. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2242-2245.
18. Шарафутдинова, Х. Г., & Нормуминова, Д. Э. (2020). Преодоление тревожности с помощью когнитивно-поведенческой психотерапии. Педагогическое образование и наука, (1), 124-127.
19. Sharafutdinova, K., & Normuminova, D. (2022). The role of cognitive psychotherapy in eliminating men and women's anxiety in the family. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 1530-1535.
20. Bobonazarovna, A. S. (2022). INTERPRETATION OF STUDENTS'PROFESSIONAL FORMATION AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 149-150.
21. Almardonova, S. B. (2019). THE ROLE OF THINKING IN THE SPIRITUAL-PSYCHOLOGICAL FORMATION OF PERSONALITY. Научные горизонты, (4), 10-13.

22. Gulyamutdinovna, S. K. (2021). Manipulative relationship of a destructive person in the family. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 175-179.
23. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(4), 957-964.
24. O'ralovna, J. G. (2022). Social Psychological Problems of Alienation. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 204-206.
25. Жумаева, Г. У. (2021). Психологические механизмы формирования профессиональных отношений будущего педагога. *Достижения науки и образования*, (4 (76)), 72-76.